



THE IMPORTANCE OF CATALOGS IN STUDYING THE WORKS OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS

Masrur Rahimjonov

Doctor of Philosophy (PhD)

Associate Professor, Department of Oriental Philology

Alfraganus University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Oriental Scholars, Scientific Heritage, Manuscripts, Catalog, Research, Eastern Renaissance, Scientific Study.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: The article analyzes the scientific heritage of encyclopedic scholars of Central Asia and their contribution to the development of world science. The main focus is on the works of Oriental scholars, the processes of preserving and cataloging their manuscripts, as well as the dissemination of scientific heritage in international sources. Through the article, modern research on the works of encyclopedic scholars, their valuable scientific significance, and opportunities for future scientific studies are presented.

MARKAZIY OSIYOLIK ALLOMALAR ASARLARINI O'RGANISHDA KATALOGLARNING AHAMIYATI

Masrur Rahimjonov

Sharq filologiyasi kafedrasi dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alfraganus universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, sharq allomalari, ilmiy meros, qo'lyozmalar, katalog, tadqiqot, Sharq Renessansi, ilmiy tadqiqot.

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo qomusiy allomalarining ilmiy merosi va uning dunyo fanining rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Sharq allomalarining ijodi, ularning asarlarini saqlash va kataloglashtirish jarayonlari, shuningdek, ilmiy merosning xalqaro manbalarda tarqalishiga qaratilgan. Maqola orqali qomusiy allomalarining asarlari haqidagi

zamonaviy tadqiqotlar, ularning qimmatli ilmiy ahamiyati va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun imkoniyatlar ko'rsatib o'tilgan.

ЗНАЧЕНИЕ КАТАЛОГОВ В ИЗУЧЕНИИ ТРУДОВ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ УЧЁНЫХ

Масрур Рахимжонов

Доцент кафедры восточной филологии

Доктор философии (PhD) по филологии

Университет Альфраганус

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, восточные ученые, научное наследие, рукописи, каталог, исследование, Восточный Ренессанс, научное изучение.

Аннотация: В статье анализируется научное наследие энциклопедических ученых Центральной Азии и их вклад в развитие мировой науки. Основное внимание уделяется творчеству восточных ученых, процессам сохранения и каталогизации их рукописей, а также распространению научного наследия в международных источниках. Через статью представлены современные исследования работ энциклопедических ученых, их ценное научное значение и возможности для будущих научных исследований.

Kirish. Markaziy Osiyo hududi qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi bo'lib, bu mintaqada nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajada tanilgan buyuk olim va qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Ularning asarlari nafaqat o'z zamonlarida, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan rivojiga bebaho hissa qo'shdi. Bugungi kunda bu allomalarning ilmiy merosini o'rganish va ularning asarlarini saqlash, kataloglashtirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot Sharq allomalari ilmiy merosining shakllanishi, saqlanishi va kataloglashtirilishi jarayonlarini ilmiy manbashunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilishni maqsad qiladi. Shu bois quyidagi usullar qo'llanildi:

1. Manbashunoslik tahlili (Source Analysis Method)

Tadqiqotning asosiy qismini Sharq qo'lyozmalarining asl manbalari, kataloglar, fihrislar va ularning tavsiflari tashkil etdi. Arab, fors va turkiy qo'lyozmalarni tasniflashda tarixiy manbashunoslik an'analari, xususan Ch. Rieu, E. Blochet va K. Brockelmann tomonidan qo'llangan kataloglashtirish mezonlari o'rganildi. Ushbu metod qo'lyozmalarining kelib chiqishi, tarqalish geografiyasi va ilmiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

2. Tarixiy-qiyosiy usul (Historical-Comparative Method)

Markaziy Osiyo hududidagi ilmiy merosning shakllanishi tarixiy davrlar (IX–XII asrlar birinchi Uygʻonish davri, XIV–XV asrlar ikkinchi Uygʻonish davri) doirasida tahlil qilindi. Turli davrlarda yozilgan qoʻlyozmalar hamda ularning Gʻarb kutubxonalaridagi tavsiflari qiyosiy solishtirildi. Bu usul allomalar ilmiy maktablarining oʻzaro bogʻliqligini aniqlashga yordam berdi.

3. Tasniflash va kataloglashtirish usuli (Classification and Cataloging Method)

Qoʻlyozmalarni tiliga, mavzusiga, davriga, muallifiga koʻra tasniflash mezonlari oʻrganildi. Alifbo kataloglari, tizimli kataloglar, tematik kataloglar, davriy kataloglar va mualliflar kataloglari tahlil qilindi. Beruniy nomidagi Sharq qoʻlyozmalari instituti, Oʻzbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi va xorijiy fondlar kataloglarining strukturalari qiyosiy oʻrganildi.

Natijalar. Bugungi kunda sharq qomusiy allomalarining ilmiy merosini oʻrganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ularning avlodlar uchun yozib qoldirgan qimmatli asarlari hozirgi davrdagi ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim manba vazifasini oʻtamoqda.

Darhaqiqat, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganidek, “Bu qutlugʻ zamindan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Narshaxiy, Abduxoliq Gʻijduvoni, Mir Said Kulol, Xoʻja Orif Revgariy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk mutaffakkirlarning nomlari, ularning boy merosi butun Sharq va Gʻarb olamida mashhurdir” [1].

Tarixdan maʼlumki, yurtimiz hududida ikki bora uygʻonish davri yuz bergan. Bu shuni anglatadiki, mamlakatimiz azaldan ilm va maʼrifat oʻchogʻi sifatida tanilgan. Zero, Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov eslatib oʻtganidek, “Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli poʻrtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbayi hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy taʼsir koʻrsatgan Sharq uygʻonish davri - Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan” [2].

XX-XXI asrlarda buyuk allomalarimizning ilmiy merosini oʻrganishga juda katta ahamiyat berila boshlaganiga alohida urgʻu berib oʻtish oʻrinlidir. Ularning asarlarini oʻrganish asosida qadimgi tariximiz qayta jonlanmoqda, fanning turli sohalarida ilmiy yangiliklar dunyo yuzini koʻrmoqda.

Shuni afsus bilan aytib oʻtish lozimki, bobolarimizning bebaho ilmiy merosi dunyoning turli hududlariga, turli sabablar tufayli tarqalib ketgan. Mazkur manbalar turli davlatlarning fondlarida saqlanmoqda. Biz ular haqidagi qisqacha maʼlumotlarni manbalar kataloglari orqali olishimiz mumkin. Katalog terminiga toʻxtalib oʻtsak, Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasida ushbu soʻzga mufassal izoh berib oʻtilgan.

Ushbu izoh quyidagicha: Katalog - (yun. katalogos - ro'yxat) - 1) muayyan narsalar (mas, kitob, eksponat, tovarlar)ning ma'lum tartibda tuzilgan ro'yxati; ularni topishni osonlashtiradi. Ko'rgazmalar, ilmiy-texnika yoki madaniy-ma'rifiy ishlar uchun mo'ljallangan ma'lumotnoma nashrlarda mavjud narsalarning (ba'zan bezakli) shu tarzda tartibga solingan ro'yxati bo'ladi. 2) kutubxona katalogi; 3) kompyuter dasturlarining mantiqiy qurilmasida - fayl nomlari saqlanadigan joy, fayllar yig'indisi [3].

Kataloglar manbalarining saqlanadigan joyini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Sharq dunyosida kataloglar fixrist deb yuritiladi. Manbalarni kataloglashtirish turli usullarda olib boriladi va tuzilishiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Turkumlash manbalarining qaysi tilda yozilganligiga, qaysi sohaga oidligiga, qaysi davrda yozilganiga va manbaning boshqa xususiyatlariga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Kataloglarning tuzilishiga ko'ra quyidagi turlari mavjud: 1. Alfavitli; 2. Tizimli; 3. Terma; 4. Davrga ko'ra; 5. Mualliflarga ko'ra.

Xususan, sharq qo'lyozmalarining dastlabki fixristlari manbaning tili nuqtayi nazaridan kelib chiqib tuzilgan. "Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanayotgan sharq qo'lyozmalari yirik sharqshunos Charlz Ryo tomonidan, ularning qaysi tilda yozilganiga qarab, arab, fors va turkiy tildagi qo'lyozmalarni alohida-alohida tavsifga olib fihrist tuzilgan. Fransiya poytaxti Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan sharq qo'lyozmalari haqida Edgar Bloshe ham shu tartibda katalog tuzgan" [4].

Yurtimiz hududida tuzilgan dastlabki katalog XIX asrda Sadr Ziyo tomonidan amalga oshirilgan. Bugungi kunda ham yurtimiz manbashunoslari tomonidan manbalarni kataloglashtirish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Mamlakatimiz hududida butun dunyoga mashhur Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalari fondi mavjud. "Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharq qo'lyozmalari instituti ko'lami va qimmatlari jihatidan ulkan sharq qo'lyozmalarini o'z ichiga oladi. Institut 25000 jild manbani o'z ichiga olib, O'zbekistondagi eng katta qo'lyozmalar xazinasi hisoblanadi. Qo'lyozmalar fondi uchta bo'limni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilardir:

1. Asosiy fond;
2. Dublet fond;
3. Hamid Sulaymnov fondi.

Yuqoridagi fondlarning ichida "Asosiy fond" eng ko'p qo'lyozmalarni o'z ichiga oladi. Unda 13,319 qo'lyozma saqlanadi. Kolleksiya-dagi turli sohalar-dagi qo'lyozmalarning keng ko'lamini namoyon qiladi, shuningdek qo'lyozmalar ichida arab, fors, chig'atoy tillarida yozilganlari miqdor jihatidan boshqalaridan ustunlik qiladi" [5].

Bundan tashqari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar xazinasi jamoasi ham istiqbolli rejalarni amalga oshirmoqda. 2018 yilda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi manbalar xazinasining dastlabki katalogi nashr ettirildi.

Katalog yoʻnalishida yana bir katta loyiha amalga oshirilgan 2015 yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qoʻlyozmalari markazida ish olib borayotgan bir guruh manbashunoslar tomonidan “Termizlik allomalar asarlarining qoʻlyozmalari katalogi” nashr etildi. Loyiha asosida termizlik allomalarning saqlanib qolgan asarlari mamlakatimiz va xorijiy qoʻlyozmalar fondlaridan topildi va nashr qilindi. Ushbu katalogning kirish qismida quyidagilar qayd qilib oʻtilgan: “Katalogdan oʻrta asrlarda ijod qilgan oʻn ikkita termizlik olimlarning mamlakatimizda va oʻndan ortiq xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan 129 ta asarlarining 452 ta qoʻlyozmasi ilmiy tavsifi oʻrin olgan. Bu asarlar asosan islom ilmlari, tasavvuf, falsafa va adabiyot sohasiga taalluqlidir” [6].

Xulosa. Kataloglar bugungi kungacha saqlanib qolgan qoʻlyozmalarni topishda qulaylik yaratuvchi asosiy manba hisoblanadi. Chunki tadqiqotchilar uchun dunyoning barcha fondlariga borib, manbalarni tadqiq etish imkoni boʻlmaganligi sababli, ular izlanish olib borayotgan manba haqidagi asosiy maʼlumotni kataloglar orqali olish imkoniga ega boʻladi.

Sharq allomalari hayoti va ijodini oʻrganish bugungi kunda fanning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Xususan, Markaziy Osiyolik allomalar fanning turli sohalariga oid qimmatli asarlar yozib qoldirganlar. Ularning asarlari bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmaganligi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli mazkur allomalar yozib qoldirgan ilmiy meros dunyo tadqiqotchilarining ham diqqat markazida boʻlib kelmoqda. Ular ushbu manbalarni oʻrganish asnosida fanning yangi qirralarini kashf qilishmoqda.

Maʼlumki, Markaziy Osiyolik allomalar tomonidan yaratilgan manbalar turli sabablarga koʻra dunyoning turli hududlariga tarqalib ketgan. Natijada ular ilmiy merosining koʻp qismi Yevropaning koʻplab muzey va kutubxonalarida saqlanmoqda. Yevropaning muzey va kutubxonalarida saqlanayotgan sharq allomalari manbalari asosida gʻarb tadqiqotchilari tomonidan kataloglar tuzilgan. Mazkur kataloglar manbalarning qayerda saqlanayotganligini bilish imkonini beradi.

Karl Brokkelman tabaqot janr asosida yozilgan asarlarni yozish borasida yangi davrni boshlab berdi. U Misr, Istambul, Parij, Berlin, Londin, Eron Sankt-Peterburg qulyozma fondlariga ilmiy tashriflar uyushtirib, tabaqot asarlarida kelgan islomi fanlariga oid manbalarni aniqlagan va ular haqida maʼlumotlarni ilmiy muomalaga kiritgan.

Markaziy Osiyo qomusiy allomalarining asarlari dunyo ilm-fani uchun asosiy manba hisoblanadi. Ular yaratgan ilmiy meros turli sohalarda, jumladan fan, adabiyot, falsafa va din sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Qoʻlyozmalarining kataloglashtirilishi va ularning xalqaro fondlarda saqlanishi tadqiqotchilar uchun zamonaviy izlanishlarni amalga oshirishda qulaylik yaratadi. Sharq allomalarining ilmiy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki Gʻarb olimlari uchun ham manba boʻlib xizmat qilib, fanning yangi qirralarini kashf qilish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". –Toshkent.: "O'zbekiston", 2017. –B. 145.
2. Qarang: Karimov I.A. 2014 yil 14-16-may kunlari Samarqandda o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi "K" harfi -Toshkent.: davlat ilmiy nashriyoti 2000 y 224-b.
4. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. -Toshkent.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B. 11
5. Jeanine Elif Dagiyeli, Санжар Фуломов Some preliminary information on an ongoing cataloguing project at the Beruni institute of oriental studies, Tashkent"
6. Qoriyev O. Termizlik allomalar asarlarining qo'lyozmalari katalogi. –Toshkent.: 2015. –B. 5.